

TARBIYA VA HUQUQ FANLARINI O'QITISH METODIKASINING O'QUVCHI YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O'RNI (UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI MISOLIDA)

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarbiya va huquq fanlarini o'qitish metodikasining yoshlarning ma'naviy axloqiga ta'siri va ularni ma'naviy tarbiyasini yuksalishidagi o'rni haqida va ularni zamonaviy davrdagi ma'naviy me'yorlarga moslashishi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan va bir necha didaktik tamoyillar muhokama qilinib tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ta'limni tashkil etish shakli, intellektual qobiliyat, o'qitishning shakl va metodlari, auditoriyada o'qish, in-dividual, individual-guruhli, o'quv jarayoni, o'qituvchi faoliyati*

Ta'limni tashkil etish shakli - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi:

1. in-dividual,
2. individual-guruhli,
3. sinf-dars,
4. ma'ruza-seminar
5. sinfdan tashqari
6. auditoriyadan tashqari
7. maktabdan tashqari.

Hoziri paytda ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. Ma'lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, o'z navbatida, ishchi malakasi, mahoratining yuqori bo'lishi, mehnat bozori talabiga moslashuvchan, o'z malakasini oshirishga intiluvchan bo'lishni talab etadi. Shuning uchun o'quvchitalabalarga ham mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishni o'rgatish lozim bo'ladi. Buni o'rgatish, eng avvalo, ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi, o'qitishning shakl va metodlari majmui o'quv jarayonining ob'ektiv qonuniyatlari bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksni tashkil etadi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda insonning bilim egallash jarayoni sezish, idrok, xotira va tafakkur tufayli kechadi. Sezish va idrok bilimning dastlabki, eng oddiy bosqichi hisoblanadi va bu sezish orqali tashqi dunyo taassurotlari, xususiyatlari bosh

miyaga alohida-alohida axborot tarzida berilib aks etadi. Idrokda ana shu taassurotlarning yaxlit obrazi hosil bo'ladi.

Demak, idrok sezishga nisbatan murakkab bosqich. Unga odamning yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, nutqi, idrok ob'ektiga munosabati, ruhiy holati va boshqalar ta'sir etadi. Sezgi va idrok asosida odamning ichki dunyosi shakllanib boradi. O'quvchilarni bilim olish, teran fikrlashga o'rgatish esa ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. O'quv yurtlarida talabalarga ta'lim berish jarayonida real hayotda sinab ko'rilgan hamda o'zini oqlagan o'qitish shakllari: ma'ruza, seminar, maslahat, amaliyot darslari, laboratoriya ishlari, o'quv va ishlab chiqarish praktikasi, kurs ishi va bitiruv malaka ishi, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar, joriy, oraliq, yakuniy baholash, davlat attestatsiya komissiyasi imtihoni, turli konkurslar, olimpiadalar va boshqa shakllaridan hamda turli metodlaridan foydalaniladi. Ta'lim berish jarayonida o'qitishning asosiy shakllari: auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mashg'ulot o'tkazishga bo'linadi. Auditoriyada o'qishga ma'ruza, seminar darslari, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi, joriy, oraliq, yakuniy baholash, davlat attestatsiya komissiyasining yakuniy baholashi kirsas, auditoriyadan tashqari o'qishga sayyor darslar, o'quv anjumanlari, ilmiy-amaliy konferentsiyalar, davra suhbatlari, o'quv ishlab chiqarish amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, auditoriyadan tashqari bajariladigan mustaqil ishlar kiradi. Sanab o'tilgan o'quv tarbiya shakllarining hech biri universal emas. Biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi. Shu bilan birga, ular bir biriga bog'liq, biri ikkinchisini mantiqiy ketma – ketligini taqozo etadi. Ta'lim–tarbiya berishning bir shakli albatta, ikkinchisiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ma'ruza o'qish, unda muayyan metodni qo'llash seminar o'tkazish saviyasiga katta ta'sir ko'rsatadi va hokazo. Dars o'tishning shakl va metodlari o'rtasidagi nisbat o'zgarib turadi. Yuqori kurslarda seminar darslarining va mustaqil ishlarning roli ortadi. O'quv mashg'ulotlarining barcha turlari talabalarni, bilishning eng yuqori bosqichi baholash darajasigacha ko'tarilishini ta'minlashdir. Ta'lim (dars) jarayoni – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining darsga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish borasida avvaldan ko'zlangan natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonidir (jarayon lotincha prosessiv oldinga harakatlanish, o'zgarish ma'nosini ifodalaydi). O'quvchitalabalarning fanni o'rganishlarida nazariy va amaliy darslar bilan bir qatorda maslahat darslari ham muhim o'rin tutadi. O'quv jarayonini tashkil qilishda, ayniqsa, seminar, amaliyot darslarini ko'ngildagidek o'tishini ta'minlashda maslahat darslarining o'z o'ri bor.

Maslahat darslari guruhiiy va individual tarzda o'tkazilishi mumkin. Guruhiiy maslahat darslarini semestr yakunida yoki murakkab mavzuni muhokama qilishda o'tkazish yoki guruhning talabi bilan, aytaylik, yangi o'quv adabiyotini o'rganish, munozarali muammolarni hal etish uchun tashkil etish mumkin. Maslahat darsining asosiy qismi individual tarzda o'tkazilib, u ixtiyoriy ravishda tashkil etiladi. Talabalar qayerda maslahat darsidan zarur yordam olsalar, o'sha erda maslahat darsiga

bajonidil qatnashishadi. Aynan maslahat darslarida talabalar adabiyotlarni konspekt qilish, mustaqil o'qishni tashkil etish masalalari bo'yicha hamda o'zlari uchun qiyin bo'lgan boshqa savollarga javob olishadi. O'qituvchi maslahat darsida faqat talabaning savoliga javob berish bilangina qanoatlanib qolmay, balki qoloq talabalar bilan ishlashga e'tibor qaratishi lozim. Maslahat darsi qaerda, qachon, qanday mavzuda o'tishini talabalarga etkazish kerak. Individual maslahat darsi o'qituvchining o'quvchi, talabani yaqindan bilishiga, uning ichki dunyosi, psixologik xususiyatlarini to'laroq his qilishiga yordam beradi. Unda o'quvchitalaba faqatgina axborotga ega bo'lib qolmay, fan bo'yicha har tomonlama maslahat oladi. Shuning uchun ham fanni chuqur o'zlashtirishga, izlanishga, uning qiziqishini kengaytirishga yordam beradi. Ta'lim oluvchilarni amaliyot bilan yaqindan tanishishida sayyor darslarning roli katta. Bunday dars o'rganilayotgan soha bo'yicha korxona, tashkilot, muassasalarda o'tkaziladi. U yerda ishlayotgan mutaxassislar o'quvchi-talabalarni ish jarayoni bilan tanishtirib, dars o'tadilar. Natijada, talabalar amaliyot bilan yaqindan tanishadilar. Elektron darsliklar yaratilishi bilan hayotga masofadan o'qitish kirib keldi. Uning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. O'qitishning bunday shakli qanday rivojlanishini kelajak ko'rsatadi. Tarbiya va huquq fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yinning tarbiyaviy maqsadi-mustaqillik irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai-nazarlar, ma'naviy estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni jamoaga kirib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. O'yinli texnologiyalar turli shaklda bo'lsada, ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni ular o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlardan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, yetuk axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog'lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo'lgan komil inson shaxsini kamol toptirishdan iborat vazifani hal etadi. O'qituvchi-pedagog avval o'quvchilarni individual, so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki, o'quvchi didaktik o'yin mashg'ulotlarida faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik hamda o'zaro yordam vujudga kelishi lozim. Davlatimiz tomonidan ta'lim sohasiga o'quvchilarning intellektual salohiyati, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlari tafakkurini rivojlantirish, egallangan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari, amaliy ko'nikma va malakalarini hosil etishga katta e'tibor berilmoqda. Ma'ruza metodi asosan yuqori sinflarda qo'llaniladi. Hikoyadan farq qilib ma'ruzada bayon elementlari kamroq ulushini tashkil qiladi. Ma'ruzada birinchi o'ringa dalillarni tahlili, ularni umumlashtirish asosiy o'rinni egallaydi. Ma'ruza bu o'qituvchi darsining bayon qilishni ancha

murakkab shakli bo'lib hisoblanadi. Ma'ruza uzoq vaqtga mo'ljallanga bo'ladi va uni asosiy qismlarini o'quvchilar yozib olishlari ta'lab etiladi. Ma'ruza metodi o'quvchilarga eshitish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Bu esa kundalik hayotda va oliy o'quv yurtlarida zarur bo'ladi. Ammo, ko'p hollarda umumta'lim maktablarida ma'ruza metodi kam hollarda qo'llaniladi. Yuqori sinflarda ma'ruza metodini keng qo'llanilishi o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishi uchun vaqtni tejashga imkon beradi. Ma'ruza metodini ko'proq kirish va yakuniy mavzularni va mavzular guruhini o'tishda qo'llash ham yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., Iste'dod, 2010. -141 b.
2. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. Falsafa fan. nom. diss. – T.: 2006.
3. Muxsieva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Pedagogika fan. nom. diss. – T.: 2005.